

## O'ZGA GAPLI QURILMALAR SHUKUR XOLMIRZAYEV ASARLARI MISOLIDA

*Termiz davlat universiteti talabasi:  
Xonmurotova Munisa Axmedovna  
Ilmiy rahbar: D.A.Ergasheva*

**Annotasiya:** Maqolada taniqli yozuvchi Shukur Xolmirzayevning asarlari asosida o'z va o'zga gapli qurilmalar tahlili o'rin olgan. Siz bu bilan ko'chirma gap hamda o'zlashtirma gap haqida ma'lum darajada xulosa chiqarishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** o'zlashtirma gap, ko'chirma gap.

**Annotation:** The article contains an analysis of speech devices based on the works of the famous writer Shukur Kholmirzayev. You can make some inferences about the derivation sentence and the adaptation sentence with this.

**Key words:** passive sentence, derivative sentence.

So'zlovchi nutqida ishlatilgan boshqa shaxsning gapiga o'zga gap deyiladi. Ayrim hollarda so'zlovchi o'z nutqida o'zganing gapini ham ishlatishi mumkin. Bunday qo'llangan o'zgalarning gapi so'zlovchi nutqida hech qanday o'zgarishsiz yoki mazmuni saqlangan, ammo grammatik xususiyatlari o'zgartirilgan holda qo'llanilishi mumkin. Shunga ko'ra o'zga gaplarni 2 turga bo'lamiz:

1. Ko'chirma gap
2. O'zlashtirma gap

O'zgalarning gapi semantik, leksik va grammatik xususiyatlari saqlangan holda, mustaqil gap shaklida ishlatilsa bu gap ko'chirma gap deyiladi.

Shakli o'zgartirilib, mazmun saqlangan o'zgalarning gapi o'zlashtirma gap deyiladi. Bunday gaplarda o'zgalarning gapi leksik, semantik, grammatik va ohang jihatidan o'zlashtirilib beriladi, ya'ni o'zgalarning gapi so'zlovchi tomonidan hikoya qilinadi. Taqqoslaymiz:

Ko'chirma gap: "Kitob aqlning kaliti", - dedi o'qituvchi.

O'zlashtirma gap: O'qituvchi kitob aqlning kaliti ekanligini aytdi.

Shukur Xolmirzayevning "Ozodlik" hikoyasi tarkibida qo'llanilgan o'zga gaplar tahlili quyidagicha: "Uch yildan beri shu gapni kutar edim sizdan", - dedi Omon iymani.

"Tuman gazetasini otaliqqa olamiz", - deb yurishibdi.

— Ko'chirma gap.

"O'l seni yam!" deb uniyam otdi.

— Ko'chirma gap.

Texnikum direktorining muovini esa, lablari ko'kargancha qaqqayib borarkan ikki gapning birida: "Shilakbaum ko'rinmayapti- ku?" deb qo'yardi.

— Ko‘chirma gap.

Chol qiyshanglab: " Tungi storojlikka –da", – dedi.

Uning nursiz gardishi alohida- alohida ajralib- oqarib turganini ko‘rib: " Ha, bahor yaqin", dedi.

" Oshalol" emas, " oshi halol!" – deb tuzatdi musiqa muallimi.

Kecha hazrati imom mashvarat qilib: " Xudodan qo‘rqmagandan qo‘rqingiz", – deb aytdilar.

"O‘n sakkizga kirmagan kim bor" qissasida esa quyidagicha misollarni ko‘rishimiz mumkin:

"Daraxtlar ham momoning bolasi ekan- da", - dedi buvisi. [ 4 ; 7 ]

" Ona! Men Jamshid bilan o‘rtoq bo‘ldim", — dedi Umida [4; 8]

— Ko‘chirma gap.

Umida onasiga Jamshid bilan o‘rtoq bo‘lganini aytdi.

— O‘zlashtirma gap.

"Yaxshiroq tayyorlanmasang, to‘rtinchiga tushirib qo‘yaman", dedi o‘qituvchi.[4; 24]

— Ko‘chirma gap.

"Qabringa shu bog‘imdan bir tup ko‘chat ekinglar", - deb vasiyat qildi Muslima buvi. [4; 29]. Ko‘chirma gap.

"Baribir u kimnidir yaxshi ko‘rishi kerak- ku", – dedi Jamshid To‘lovga. [4;37] Ko‘chirma gap.

" Hoy, shu kuningdan o‘lganing yaxshimasmi?"– deb baqirdi u. [4; 83]

— Ko‘chirma gap.

"Ahding shunchalik ekan, nega ketmayapsan?" – dedi Gulsara. [4; 130]

— Ko‘chirma gap.

" Yana ichasizmi?" – deb so‘radi Ikrom. [4; 162 ]

— Ko‘chirma gap.

Nosirjon unga sovuq tikilar, gapi ado bolgach: " Oxun aka, siz ovqatni biling... Muhabbat boshqa narsa!..."– dedi. [4; 193]

— Ko‘chirma gap.

Polina quvonib: " Hammadan oldin siz ketadigan bo‘ldingiz!" —dedi. [4;192]

— Ko‘chirma gap.

" O‘ynab bering, bir gap aytaman"– dedi Polina. [4;193]

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R. Sayfullayeva. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent - 2020.
2. B. Mengliyev. Hozirgi o'zbek tili. Toshkent - 2018.
3. Shukur Xolmirzayev. Ozodlik.
4. Shukur Xolmirzayev. O'n sakkizga kirmagan kim bor?. Toshkent. "Yozuvchi" nashriyoti– 1999.